

INGLIZ VA O‘ZBEK RADIODISKURSIDA ELLIPSISNING TIL TEJAMKORLIGI STRATEGIYASI SIFATIDAGI O‘RNI

MEHRANGIZ IZOMOVA ALISHER QIZI

Buxoro xalqaro universiteti II bosqich magistranti

e-mail: Mehrangizizomova03@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot ingliz va o‘zbek radiodiskursida ellipsis hodisasining til tejamkorligi strategiyasi sifatidagi o‘rni qiyosiy tahlil qilinadi. Radiodiskurs sharoitida axborotni tezkor, ixcham va aniq yetkazish zarurati nutqiy birliklarning qisqartirilishini talab qiladi. Tadqiqotda diskursiv, qiyosiy va kontekstual tahlil metodlari asosida radio yangiliklari materiallari o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ingliz tilida ellipsis asosan sintaktik darajada namoyon bo‘lsa, o‘zbek tilida kontekstual va morfologik omillar ustunlik qiladi. Ellipsis nutqni ixchamlashtirish, takrorni kamaytirish va kommunikativ samaradorlikni oshirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Til tejamkorligi, ellipsis, radiodiskurs, diskurs tahlili, pragmatlingvistika.

Kirish.

Zamonaviy mediamakonda diskursiv jarayonlarning intensivlashuvi, xususan radiokommunikatsiya sohasida axborotni tezkor va samarali uzatish zarurati nutqiy strukturalarning optimallashtirilishini taqozo etadi. Radiodiskurs o‘zining vaqt jihatidan chegaralanganligi, monologik yo‘nalganligi hamda tinglovchi bilan bevosita interaktivlikning cheklanganligi bilan ajralib turadi. Shu sababli unda lingvistik vositalarning iqtisodiy qo‘llanilishi fundamental ahamiyat kasb etadi. Ellipsis – ya’ni gapning ayrim qismlarini tushirib qoldirish – radiodiskursda faol ishlatiladi. “Batafsil – keyingi soatlarda”, “Davomi – yangiliklarda” kabi konstruksiyalar grammatik jihatdan to‘liq emas, ammo kommunikativ jihatdan yetarli hisoblanadi. Tinglovchi kontekst orqali yetishmayotgan unsurlarni to‘ldiradi.

Til tejamkorligi konsepsiyasi lingvistik iqtisod prinsipi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, minimal artikulyator va kognitiv resurslar evaziga maksimal kommunikativ effektga erishishni nazarda tutadi. Bu borada George Kingsley Zipf tomonidan ilgari surilgan “eng kam sa’y-harakat prinsipi” til tizimidagi qisqartirish va soddalashuv -jarayonlarini izohlashda metodologik asos vazifasini bajaradi.

Asosiy qism.

Ellipsis mazkur iqtisodiylikning muhim lingvistik mexanizmlaridan biri bo‘lib, kontekstual tiklanish imkoniyatiga ega bo‘lgan sintaktik yoki leksik

birliklarning ekspressiv ravishda tushirib qoldirilishini anglatadi. I. R. Galperin ellipsisni stilistik jihatdan motivatsiyalangan reduksiya sifatida talqin qiladi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi ingliz va o'zbek radiodiskursida ellipsisning funksional-pragmatik xususiyatlarini aniqlash hamda uning til tejamkorligi strategiyasi sifatidagi rolini qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot metodologiyasi sifatida diskursiv tahlil, qiyosiy-tipologik yondashuv hamda kontekstual interpretatsiya metodlaridan foydalanildi. Empirik material sifatida ingliz va o'zbek radio yangiliklari korpusidan tanlab olingan namunalar xizmat qildi. Tahlil jarayonida ellipsis q sintaktik reduksiya (ega, kesim komponentlarining tushirilishi), kontekstual implitsitlik, morfologik ixchamlik parametrlari asosida o'rganildi. Mazkur parametrlar ellipsisning kommunikativ yuklamasi va funksional samaradorligini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot natijalari ellipsisning har ikki til radiodiskursida faol qo'llanilishini ko'rsatdi, biroq uning realizatsiya mexanizmlari sezilarli darajada farqlanadi.

Ingliz tilida ellipsis asosan sintaktik reduksiya shaklida namoyon bo'ladi:
 "More talks expected tomorrow."

(More talks are expected tomorrow.)

Mazkur konstruktsiyada yordamchi fe'ning tushirilishi nutqning iqtisodiylikini ta'minlaydi. Bu ingliz tilining analitik strukturasi xos xususiyatidir.

"Yig'ilish boshlandi." Bu gapda ega komponenti tushirilgan bo'lib, u kontekstual ravishda tiklanadi. Mazkur holat o'zbek tilining agglutinatив xususiyati bilan izohlanadi. Bu yo'sindagi qiyosiy tahlildan namoyon bo'ladiki, ingliz tilida sintaktik reduksiya ustunlik qiladi. O'zbek tilida tahlil qilinganda, semantik-kontekstual implitsitlik ustunlik qiladi.

Olingan natijalar ellipsisning lingvistik universallikka ega ekanligini, biroq uning realizatsiyasi til tipologiyasiga bog'liqligini ko'rsatadi. Tilning iqtisodiylik tendensiyasi haqida tilning tizimi o'zidan ortiqcha bo'lgan yuklamani ya'ni bosimni kamaytirishga intilishi bir necha bor tadqiqotlarda keltiriladi. Pragmatik nuqtai nazardan H. P. Grice tomonidan ilgari surilgan kooperativ prinsip ellipsisning funksional asosini tushuntiradi. Nutq tizimi zarur darajada informativ bo'lishi kerak, biroq ortiqcha bo'lmasligi lozim. Nutq axborot yetkazish vazifasini bajarilishi ko'zda tutiladi. Shuningdek, David Crystal og'zaki nutqda kontekst orqali tiklanadigan elementlarning tushirilishini tabiiy hodisa sifatida baholaydi.

Mazkur nazariy qarashlar ellipsisning radiodiskursdagi funksional-pragmatik rolini asoslaydi. Tadqiqot natijalari ellipsisning ingliz va o'zbek radiodiskursida til tejamkorligining muhim strategiyasi ekanligini tasdiqlaydi. Har ikki til kommunikativ samaradorlikni oshirish maqsadida ellipsisdan foydalanadi, biroq bu jarayon turli lingvistik mexanizmlar orqali

amalga oshadi.

Ellipsis nutqni optimallashtirish, informatsion yuklamani kamaytirish va kommunikativ aniqlikni ta'minlashda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. gliz radiodiskursida ellipsis ko'proq grammatik jihatdan qat'iy va strukturalashgan shaklda namoyon bo'lsa, o'zbek radiodiskursida u ko'pincha kontekstga tayanadigan, pragmatik jihatdan moslashuvchan ko'rinishda ishlatiladi. Har ikki tilda ham ellipsis nutqning tabiiyligi, jonliligi va kommunikativ samaradorligini oshiruvchi muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, ellipsis nafaqat til tejamkorligini ta'minlaydi, balki tinglovchining diqqatini asosiy axborotga qaratish, nutqni og'ir va ortiqcha strukturadan xoli qilish vazifasini ham bajaradi. Shu jihatdan u radiodiskursning funksional va pragmatik xususiyatlarini kuchaytiruvchi lingvistik strategiya sifatida baholanadi.

Xulosa.

Umuman olganda, ingliz va o'zbek radiodiskursida ellipsisning qo'llanilishi o'xshash kommunikativ maqsadlarga xizmat qilsa-da, ularning ifodalanish shakllari til tizimi va madaniy-pragmatik omillarga ko'ra farqlanadi. Ushbu farqlarni chuqur o'rganish kelgusida qiyosiy lingvistika va diskurs tahlili yo'nalishlarida yanada keng tadqiqotlar olib borish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Zipf, G. K. Human Behavior and the Principle of Least Effort. – Cambridge: Addison-Wesley, 1949.
2. Martinet, A. Elements of General Linguistics. – Chicago: University of Chicago Press, 1960.
3. Grice, H. P. Logic and Conversation. – New York: Academic Press, 1975.
4. Crystal, D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003.
5. Galperin, I. R. Stylistics. – Moscow: Higher School, 1977.
7. Halliday, M. A. K. An Introduction to Functional Grammar. – London: Arnold, 1994.
8. Brown, G., Yule, G. Discourse Analysis. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983.
9. Fairclough, N. Media Discourse. – London: Edward Arnold, 1995.
10. van Dijk, T. A. Discourse and Power. – London: Sage Publications, 1998.